



Bilimni  
baholash  
agentligi

BILIM VA MALAKALARNI BAHOALSH  
AGENTLIGI  
*Bilimingga ishon va muvaffaqiyatga erish!*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR  
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING  
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA  
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI  
ISHTIROKCHILARI UCHUN

KIMYO  
FANIDAN  
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

*Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi*

*Imzo*

Ushbu test varianti 30 ta (1–30) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdag'i test topshiriqlari mavjud:

- yopiq turdag'i test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqsidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;
- ochiq turdag'i test topshiriqlarining javobini javoblar varaqsidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;
- moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiylit (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (28-, 29-, 30-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqsiga belgilang.

1.

[0,9 ball]

Qaysi javobdagi ma'lumot davriy jadvalning 1-4 davrda joylashgan element atomining hech birining asosiy holatiga **xos EMAS?**

- A) juftlashgan elektronlarning juftlar soni toq elektronlar soniga teng
- B) p-elektronlar soni d- elektronlar soniga teng
- C) d- elektronlar soni s-elektronlar soniga teng
- D) p-elektronlar soni s-elektronlar soniga teng

2.

[1,7 ball]

Azot va karbonat angidrid aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 16 ga teng. 30 litr shunday aralashmaga 60 litr karbonat angidrid qo'shildi.

Oxirgi gaz aralashmasining **vodorodga nisbatan zichligini toping.**

- A) 25
- B) 40
- C) 20
- D) 18

3.

[2,4 ball]

$NO_2$  va  $SO_2$  dan iborat gaz aralashmasining karbonat angidridga nisbatan zichligi 1,25 ga teng. Gazlar o'zaro reaksiyaga kirishmagan. Aralashma yetarli olingan kaliy permanganatning suvli eritmasidan o'tkazildi. Bunda to'rt xil tuz va ikkita kislota hosil bo'ldi. Olingan 500 g eritmadagi sulfat kislotaning massa ulushi 0,0392.

Hosil bo'lgan eritmadagi **barcha tuzlarning mol yig'indisini toping.**

- A) 0,6
- B) 0,4
- C) 0,3
- D) 0,5

4. [1,7 ball]

Davriy jadvalning sxemasida  $A$ ,  $B$ ,  $D$ ,  $E$  elementlar joylashtirilgan. Ushbu elementlarga **mos bo‘lgan javoblarni tanlang**. ( $r$  – atom radiusi)

	1																18
I		2															
II																	
III		3	4	5	6	7	8	9	10	11	12					$B$	
IV																	
V	$A$												$D$			$E$	
VI																	
VII																	


- 1)  $A$  elementi aktiv metall bo‘lib birikmalarda faqat +1 oksidlanish daraja namoyon qiladi;
- 2)  $E$  element atomi  $B$  element atomidan osonroq elektron qabul qiladi;
- 3)  $r(A) > r(D) > r(E)$ ;
- 4)  $A$  va  $D$  elementlarning vodorodli birikmalari suvda eritilganda ishqor hosil bo‘ladi,  $B$  va  $E$  elementlarning gidridlari suv bilan kislotalar hosil qiladi;
- 5) elementlarning yuqori oksid formulalari quyidagicha:  $A_2O$ ,  $DO_2$ ,  $BO_3$ ,  $EO_3$

- A) 4, 5
- B) 2, 4
- C) 3, 5
- D) 1, 3

5.

[0,9 ball]

Rasmda ko'rsatilgandek ikkita eritma tayyorlandi ( $80^{\circ}\text{C}$ ).



Berilgan ma'lumotlarga asoslanib **to'g'ri javobni tanlang.**

$t$	Eruvchanlik, g/100 g suvda	
	$\text{KNO}_3$	$\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$
$80^{\circ}\text{C}$	150	100
$20^{\circ}\text{C}$	35	60

- 1) Tayyorlangan eritmalarida tuzlarning massa ulushi: a) bir xil; b) har xil;
- 2) Tayyorlangan eritmardan to'yigan: a)  $\text{KNO}_3$  eritmasi; b)  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$  eritmasi;
- 3) Eritmalar  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovitilganda cho'kma tushadi: a) ikkala eritmada; b)  $\text{KNO}_3$  eritmasida; c)  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2$  eritmasida.

- A) 1a, 2b, 3a
- B) 1a, 2a, 3b
- C) 1b, 2a, 3a
- D) 1b, 2b, 3c

6.

[1,7 ball]

Benzilformiat  $\text{HCOO}-\text{CH}_2-\text{C}_6\text{H}_5$  kaliy permanganatning sulfat kislotali eritmasi bilan oksidlanganda benzoy kislota, karbonat angidrid, kaliy sulfat, marganes (II) sulfat va suv hosil bo'ldi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyani tuzing, tenglashtiring va **barcha koeffitsiyentlar yig'indisini toping.**

- A) 49
- B) 53
- C) 48
- D) 52

7.

[1,7 ball]

176 g  $\text{CuSO}_4$  ning  $X$  %li eritmasi elektrolizga uchradi. Hosil bo'lgan eritmada sulfat ionning massa ulushi 40 % va  $\frac{n(\text{SO}_4^{2-})}{n(\text{Cu}^{2+})} = \frac{3}{1}$ .

**Hosil bo'lgan eritmaning massasini (g) toping.**

- A) 136
- B) 144
- C) 162
- D) 208

**8.** [0,9 ball]

*A, B, C* moddalar tarkibida bir xil element yo‘q, lekin *A* eritmasi *B* eritmasi bilan va *A* eritmasi *C* moddasi bilan o‘zaro aralashtirilganda bir xil tarkibli cho‘kma hosil bo‘ladi.

***A, B, C* moddalarni mos ravishda tanlang.**

1)  $NaI$ ; 2)  $AlCl_3$ ; 3)  $Na_2CO_3$ ; 4)  $Br_2$ ; 5)  $Cl_2$ ; 6)  $KOH$

A) 1, 4, 5

B) 2, 4, 6

C) 1, 5, 6

D) 2, 3, 6

**9.** [2,4 ball]

Teng mol nisbatda olingan ikki valentli metallning gidroksidi, karbonat va nitrat tuzlar aralashmasi termik parchalanganda aralashma massasi 34 grammga kamaydi. Aralashma tarkibida hech qanday qo‘sishimchalar yo‘q va metallning massa ulushi 46,83 %.

**Metallni aniqlang.**

A) *mis*

B) *magniy*

C) *kalsiy*

D) *rux*

**10.** [1,7 ball]

400 g bariy xlorid eritmasiga 200 g noma'lum bir valentli metall sulfat eritmasidan yetarli miqdorda qo‘shilganda eritmaning massasi 23,3 grammga kamaydi.  $c(\%) (Me_2SO_4) - c(\%) (BaCl_2) = 3,5\%$

**Noma'lum metall sulfatni toping.**

A) *litiy sulfat*

B) *kaliy sulfat*

C) *mis (I) sulfat*

D) *natriy sulfat*

**11.** [0,9 ball]

Temir yoki mis elektrokimyoviy kuchlanish qatorida chaproq joylashganini **qanday reagentning eritmasi bilan aniqlash mumkin?**

A)  $NiSO_4$

B)  $H_2O$  ( $20^\circ C$ )




C)  $AgNO_3$

D)  $PbSO_4$

12.

[0,9 ball]

Quyida qaysi javobdagi moddaning **formulasini BERILMAGAN?**



- A) ko‘p atomli spirt
- B) dipeptid
- C) uglevod
- D) murakkab efir

13.

[1,7 ball]

Etan va dimetilamin aralashmasiga a gramm  $\text{HCl}$  qo‘shilganda gaz hajmi kamayib, aralashmaning molar massasi  $b$  marta kamaydi, yana a gramm  $\text{HCl}$  qo‘shilgach molar massa 30 g/mol bo‘lib, massa dastlabkiga nisbatan 4 marta kamaydi.

*b ni toping.*

- A) 80/15
- B) 80/35
- C) 80/75
- D) 80/45

14.

[1,7 ball]

Siklopropan, propin, pentadiyen-1,4 va 1-vinilsiklopenten aralashmasi to‘liq alkanlargacha gidrogenlandi. Sarflangan vodorod hajmi xuddi shunday aralashma yonishidan hosil bo‘lgan karbonat angidrid hajmidan ikki marta kam.

Agar dastlabki aralashmada 5 g propin bo‘lsa, **shu aralashmaning molini toping.**

- A) 0,35
- B) 0,15
- C) 0,25
- D) 0,45

15.

[2,4 ball]

Dibromalkanga rux metalli ta’sir ettirilganda 33,75 g rux bromid olindi.

Agar dastlabki dibromalkanning hosil bo‘lgan alkendant massa farqi 34,8 gramm bo‘lsa, **alkenni toping.** Reaksiya unumi 75 %.

- A) propiletien
- B) metiletien
- C) etilen
- D) etiletien

16.

[2,4 ball]

0,8 mol noma'lum bir asosli to'yingan karbon kislotaning suvli eritmasiga natriy metalli qo'shilganda 17,92 litr (n.sh.) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishda yuqori temperatura va bosim ostida yetarlicha is gazi yutтирлиши natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchi reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 1:1 massa nisbatda ekanligi aniqlandi.

**Noma'lum kislotaning massasini (g) toping.**

- A) 70,4
- B) 48
- C) 59,2
- D) 36,8

17.

[1,7 ball]

Laboratoriyada bir xil sharoitda 4 ta bir xil hajmli va massali yopiq kolbalarda teng miqdorda olingan gazlar ( $A - D$ ) bor. Barcha gazlarning tarkibida  $X$  element atomlari uchraydi. Agar xuddi shunday kolba havo bilan to'ldirilsa uning massasi 221,74 g keladi.

Gaz	$A$	$B$	$C$	$D$
Rangi	sarg'ish-yashil	rangsiz	rangsiz	rangsiz
Gaz bilan kolbani massasi (g)	224,26	222,19	225,94	223,03
Gaz tarkibida $X$ elementni massa ulushi (%)	100	97,2	$y$	$z$

**Jadvalagi ma'lumotlarga asoslanib  $y$  va  $z$  ni toping.**

- A)  $y = 71,71; z = 70,3$
- B)  $y = 71,71; z = 82,55$
- C)  $y = 67,62; z = 81,6$
- D)  $y = 35,8; z = 70,3$

18.

[2,4 ball]

Agar rux atomining radiusi  $0,14 \text{ nm}$  ( $1 \text{ nm} = 10^{-9} \text{ m}$ ) va yaxlit metall zichligi  $7,1 \frac{\text{g}}{\text{cm}^3}$  bo'lsa, sharsimon metall bo'lakchasining qanday **hajmi (foizlarda)** rux atomlari bilan egallanganligini aniqlang.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

19.

[2,4 ball]

Ammiak sintezi uchun  $0,2 \text{ mol/l}$  dan azot va vodorod gazlari olindi. Yopiq idishda va doimiy temperaturada bosim  $10\%$  ga kamayganda ammiak olish reaksiyasida muvozanat qaror topdi.

**Muvozanat konstantasini toping.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

20.

[2,4 ball]

Tuzning to‘yingan eritmasi qizdirildi va unda qo‘sishimcha shu tuzdan 8 g eritildi. Eritma dastlabki temperaturagacha sovitilganda 32 g kristallogidrat cho‘kmaga tushdi.

Agar to‘yingan eritmaning eruvchanligi 100 g suvda 25 g bo‘lsa, **kristallogidrat tarkibidagi tuzning massa ulushini (%) toping.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

21.

[0,9 ball]

Berilgan formulalarning moddalarning suvli eritma  $pH$  qiymati bilan **moslang.**

Formula	Suvli eritmaning $pH$ qiymati
a) $H_2S$ ;	1) 9,2;
b) $NH_3$ ;	2) 7;
c) $KOH$ ;	3) 12,8;
d) $HCl$	4) 5,4; 5) 2,1

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

22.

[2,4 ball]

235 g 20 % li mis (II) nitrat eritmasiga 150 g 20,8 % li bariy xlorid eritmasi qo‘sildi. Hosil bo‘lgan eritma inert elektrodlar yordamida elektrolizga uchradi. Eritmada nitrat ionlarning massa ulushi 9,2 % bo‘lganda elektroliz to‘xtatildi.

Elektroliz jarayonida hosil bo‘lgan **kislородning miqdorini (mol) toping.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

23.

[1,7 ball]

A, B, C, D binar birikmalarning nisbiy molekulyar massalari uchun quyidagi nisbat to‘g‘ri keladi:  
 $Mr(A) = Mr(B) = 2Mr(C) = 0,5Mr(D)$ . A, B, C (n.sh.) gazlar, a D – tabiiy kauchukning monomeri bo‘lgan uchuvchan suyuqlik. C kislорodda yondirilganda suv va suvda erimaydigan gaz ajraladi. B modda yondirilganda C gaz bilan reaksiyaga kirishadigan modda hosil bo‘ladi. A modda mo‘l miqdorda olingan kislорodda yondirilganda hosil bo‘lgan E moddaning suvli eritmasi kuchsiz kislota bo‘lib A va C bilan reaksiyaga kirishadi.

**E ni A bilan reaksiya tenglamasini yozing va tenglashtiring.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

24.

[2,4 ball]

19,6 g temir xlor gazi bilan ta'sirlashganda 46,225 g temir (II) xlorid va temir (III) xlorid aralashmasi hosil bo'ldi.

Hosil bo'lgan aralashmadagi **temir (III) xloridning massasini (g) toping.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

25.

[2,4 ball]

22,1 g o'simlik moyi (bir xil kislota qoldig'idan tashkil topgan) 1000 g 1,2 foizli bromli suv eritmasini rangsizlantirish uchun yetarli.

**Ushbu o'simlik moyining 1 molini yoqish uchun necha mol kislorod zarur?**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

26.

[1,7 ball]

Ikki xil yog' aralashmasida palmitin, stearin va olein kislota qoldiqlarining nisbati mos ravishda 1:2:3 ga teng.

**582 g yog'lar aralashmasini gidrolizlab necha gramm kaliy oleinat olish mumkinligini aniqlang.**


Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

27.

[0,9 ball]

Yuqori organizmlarning hujayra tarkibida uchraydigan strukturasi keltirilgan tabiiy tripeptid-glutation qanday aminokislotalarning qoldiqlaridan hosil bo'lgan?



**Aminokislotalarni formulalarini yozing.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

28-30.

15,6 g to'yingan bir asosli karbon kislota mo'l olingan kalsiy gidroksidning suvli eritmasiga solindi. Reaksiyadan so'ng eritma bug'latildi va qoldiq 401 °C da qizdirildi. Natijada 5,46 g organik moddalar aralashmasi hosil bo'ldi va 21 g cho'kma tushdi. Cho'kma mo'l olingan xlorid kislotada eritilganda normal atmosfera bosimda 22 °C da zichligi 1,819 g/l, hajmi 5,08 litr bo'lgan gaz hosil bo'ldi.

28-30 test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang.

Topshiriqlar	Javoblar
28. Karbon kislotaning miqdorini (mol) toping. [0,9 ball]	A) 0,08 B) 0,13 C) 0,16
29. Hosil bo'lgan organik moddalarning (5,46g) massa farqini (g) toping. [0,9 ball]	D) 0,26 E) 0,34
30. Hosil bo'lgan uglevodorodning miqdorini (mol) aniqlang. [0,9 ball]	F) 0,48









